

---

## Hamkorlik memorandumi imzolandi

“Farg’ona-vodiy gavhari. Investisiya va turizm istiqbollari” mavzusida bo’lib o’tgan xalqaro forum doirasida Qo’shtepa tumani hokimining o’rinbosari, tuman investisiyalar va tashqi savdo bo’limi boshlig’i Baxtiyorjon Taniqulov Saudiya Arabistonidan tashrif buyurgan investor Ali Mohammad bilan farm sanoat yo’nalishida hamkorlik qilish maqsadida muloqot olib bordi.

Uchrashuv davomida tumandagi “Med farm” MCHJ bilan hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi hamda mazkur loyihani amalga oshirish bo'yicha hamkorlik memorandumi imzolanib, 2 million dollarlik shartnoma tuzish rejalashtirildi.





